

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING G‘AYRIIJTIMOIY XULQ
ATVORGA EGA BO‘LGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASHDA MAHALLA
YETTILIGI BILAN HAMKORLIGI**

Sharifboyeva Mardona Shavkat qizi

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: *O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda ichki ishlar organlari tizimida bir qancha islohatlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan mahalla yettiligi bilan hamkorlik asosida mahallalardagi huquqbuzarliklarni oldini olish jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali mexanizmi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinishi natijasida respublikamizdagi kriminogen vaziyatga ijobiy ta’sir o‘tkazib kelishi bilan bog‘liq masalalar muhokama qilingan*

Tayanch so‘zlar: *Profilaktika inspektori, g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, kriminogen vaziyat, mahalla huquq-targ‘ibot markazi, umumiy profilaktika, mahalla yettiligi, oila hamkorlik, milliy g‘oya.*

Аннотация: *В Республике Узбекистан в настоящее время реализуется ряд реформ в системе органов внутренних дел, обсуждались вопросы, связанные с доставкой.*

Ключевые слова: *Инспектор по профилактике, антисоциальное поведение, криминогенная ситуация, участковый правоохранительный центр, общая профилактика, седьмой квартал, семейное сотрудничество, национальная идея.*

Abstract: *A number of reforms are currently being implemented in the system of internal affairs bodies in the Republic of Uzbekistan. In particular, issues related to the development and implementation of an effective mechanism for combating crime in neighborhoods, in particular, in cooperation with the seven mahallas, have had a positive impact on the criminogenic situation in our republic.*

Keywords: *Prevention inspector, antisocial behavior, criminogenic situation, neighborhood advocacy center, general prevention, neighborhood seven, family cooperation, national idea.*

Jamiyatimizda barqarorlik tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish inson huquq va erkinlariga so‘zsiz rioya qilishni ta‘minlash mamalakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘tgan davr ichida mamalakatimizda har bir mahalla kesimida mahalla huquq tartiboti maskani tashkil etilib jinoyatchilikni aniqlash, ularga imkon berayotgan shart–sharoitlarni bartaraf qilish choralarini ishlab chiqib, huquqbuzarlikni oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muommolarni o‘z o‘rnida hal etish lozimligi belgilanmoqda. Hududlarda aholining muommosini o‘rganish, ularni qiynayotgan, yechilishi qiyin bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha hudud profilaktika inspektorining o‘z faoliyatini amalga oshirishda mahalla yettiligi bilan hamkorligi lozimligi ta‘kidlanmoqda. Chunki har qanday huquqbuzarlik ham, jinoyat ham albatta mahallada sodir etiladi. Quyi bosqichni mustahkam qilmay turib yuqori bosqichga yo‘l qo‘yilgan qadam uzoqa bormaydi. Shuning uchun profilaktika inspektori bilan mahalla yettiligi faoliyati hamkorligini samaradorligini oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Quyidagilar “Mahalla yettiligi”ning asosiy vazifalari hisoblanadi:

1. Tegishli hududda qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarining ijrosi ta‘minlanishini, oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli va ehtiyojlarini o‘rganishda fuqarolar yig‘ini kengashiga ko‘maklashish;

2. Jismoniy shaxslarni “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

3. Jismoniy shaxslarga “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hamda Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish va subsidiyalar ajratish bo‘yicha qaror qabul qilish. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Mahalla yettiligi”ning kollegial qarorlari asosida ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam va ajratiladigan subsidiyalar ro‘yxati”da keltirilgan ijtimoiy yordam va subsidiyalar ajratish;

4. Fuqarolarning og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish va bunday vaziyatga tushganlarni og‘ir vaziyatdan chiqarish maqsadida ijtimoiy xodim

tomonidan kiritilgan xulosa asosida “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi hisobidan yordam berish bo‘yicha kollegial qaror qabul qilish;

5. Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda ishtirok etish, shuningdek, ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlariga tegishli takliflar kiritish;

6. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish¹²

Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha normativ huquqiy hujjatlari qabul qilinib, respublika miqyosida ijro qilinish ta‘minlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-sonli farmonida ham aynan mahalladagi aholi muammolarini hal etishda mahalla yettiligini o‘rni va roli beqiyos ekanligi ta‘kidlab o‘tilib, ularni aniq va ustuvor vazifalari belgilab berildi. Davlatimiz rahbarining topshirig‘i bilan mahallalarda “yettilik” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularga quyidagi asosiy vazifalar yuklangan:

- ☐ mahalla raisi – ehtiyojmand oilalarga uy-joyini yaxshilashga ko‘maklashish;
- ☐ hokim yordamchisi – ishsizlarga ish topishga ko‘maklashish;
- ☐ yoshlar yetakchisi – yoshlarni sport, musiqa va to‘garaklarga jalb etish;
- ☐ xotin-qizlar faoli – ayollarni tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilikka jalb qilish;
- ☐ profilaktika inspektori Mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni ta‘minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishda ko‘maklashish;
- ☐ soliq xodimi – mahalladagi imkoniyatlarni ishga solib, soliq bazasini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirishga hamda o‘zini o‘zi band qilganlarga kichik biznes toifasiga o‘tishga ko‘maklashish;
- ☐ ijtimoiy xodim – yolg‘iz keksa, nogiron va boshqa muhtojlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish kabi aniq vazifalar bilan shug‘ullanish¹³.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.03.2024-yildagi 137-son

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrda PF-209-son Farmoni

Bu esa o‘z navbatida mahalla yettiligini bir bo‘g‘ini hisoblangan profilaktika inspektorining vazifa va ma’suliyatini ikki karra oshiradi. Ayniqsa hududidagi g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar bilan ishlashda alohida ma’suliyat talab qiladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunning 3-moddadida quyidagi tushunchalar keltirib o‘tilgan:

G‘ayriijtimoiy xulq-atvor—shaxsning jamiyatdagi qabul qilingan xulq-atvor normalarini va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi;

Huquqbuzarlik—sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) qilmish;

Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs— o‘zining g‘ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo‘lgan jismoniy shaxs¹⁴.

Profilaktika inspektorining g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar bilan ishlash faoliyatida ko‘plab toifadagi shaxslar bilan ishlashi mumkin.

1. Alkogolli maxsulotlarni iste‘mol qiluvchi shaxslar
2. Yengil tabiatli ayollar
3. Ilgari sudlangan ammo tuzalish yo‘liga kirmaganlar
4. Oilaviy janjalkashlar
5. Giyohvand vositalarni, psixotrop moddalarni iste‘mol qiluvchi shaxslar
6. O‘ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi mavjud bo‘lgan shaxslar
7. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar

Profilaktika inspektorining g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar bilan ishlash jaroyoni juda ham murakkab jarayondir, sababi ularning har biri o‘ziga xos individual xislatlarga egadirlar, biri ikkinchisini takrorlamaydi, ularning har biri bilan ishlash jarayonida turli xil usul va vositalardan foydalaniladi, aynan shuning uchun ularning har biriga alohida tarzda ta’rif berilgani va o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgani bejiz emas. Ichki ishlar organlarining g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini rivojlantirish uchun ularning mahalla yettiligi bilan hamkorligini yanada takomillashtirish lozim. Bunga sabab, sir emaski O‘zbekistonda fuqarolar bilan ishlashda mahalla o‘rni katta, yurtimizda aholining juda katta qismi mahallalarda istiqomat qilishadi. Hozirgi kunda ichki ishlar organlarining

¹⁴ O‘RQ-371-son: Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun. 2014-yil 14-may

g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar bilan ishlash faoliyatida quyidagi kamchilik va muammolar kuzatilmoqda:

❖ G‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar bilan ishlashda ularga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani;

❖ G‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslarning ish bilan ta‘minlash sohasida uchrayotgan muammolar;

❖ G‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar bilan ishlash vazifalari normativ-huquqiy hujjatlarga yetarli darajada yoritilmayotgani

❖ G‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar bilan ishlashda profilaktika inspektorining kerakli darajada zarur jihozlar bilan ta‘minlanmaganligi.

Xulosa qilib aytilganda, islohatlarning bugungi bosqichida O‘zbekistonda huquqbuzarliklarni profilaktikasi bo‘yicha noyob milliy tizimi yaratildi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi nafaqat jinoyatchilik qarshi kurashishning bosh yo‘nalishiga, balki mamalakatdagi barcha davlat idoralarining ustuvor vazifasiga aylandi. Huquni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini tashkil etish uslublari tubdan o‘zgartirildi, xususan qonun buzulishi holatlarini fosh etish va choralar ko‘rish emas, balki mazkur holarlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini ta‘minlash ushbu idoralarning eng muhim azifasi etib belgilandi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023;
2. O‘zbekiston Respublikasi 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son qonuni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-sonli farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar to‘g‘risida”gi 2016-yil 16-sentabrda O‘RQ-407-son qonuni.